

**O'ZBEKİSTON İQTİSODİYOTIGA XORİJIY INVESTİTİSYALARNI
JALB QILISHNING MOLİYAVİY MEXANİZMLARI TAHLİLİ**

Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalg etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilish bo'yicha mexanizmlarni joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifa hisoblanadi. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishda, korxonalarining investitsiya faoliyatini yanada jadallashtirishda, ishlab chiqarishni modernizatsiyalashda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarining tutgan o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarini jalg qilishning moliyaviy mexanizmlari tahlili hamda uni takomillashtirishning nazariy muammolarini, ularni hal etishning innovatsion yo'nalishlari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: investitsion iqtisodiyot, moliyaviy mexanizm, bozor iqtisodiyoti, xorijiy investitsiyalar, raqamli texnologiyalar, innovatsion strategiya, sarmoya, investor.

ANALYSIS OF FINANCIAL MECHANISMS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS TO THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

ANNOTATION

Currently, creating favorable conditions for attracting foreign investments to the national economy, introducing mechanisms for their legal protection, and further improving the investment environment are the most important tasks in the field of economic development. The role of direct investments in the deepening of structural changes in the economy, in accelerating the investment activities of enterprises, and in the modernization of production is incomparable. In this article, the analysis of the financial mechanisms of attracting foreign investments to the economy of Uzbekistan, as well as the theoretical problems of its improvement, and the innovative ways of solving them are presented.

Key words: investment economy, financial mechanism, market economy, foreign investments, digital technologies, innovation strategy, investment, investor.

**АНАЛИЗ ФИНАНСОВЫХ МЕХАНИЗМОВ ПРИВЛЕЧЕНИЯ
ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА**
АННОТАЦИЯ

В настоящее время создание благоприятных условий для привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику, внедрение механизмов их правовой защиты, дальнейшее улучшение инвестиционного климата являются важнейшими задачами в сфере экономического развития. Роль прямых инвестиций в углублении структурных изменений в экономике, в ускорении инвестиционной деятельности предприятий, в модернизации производства несравненна. В данной статье представлен анализ финансовых механизмов привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана, а также теоретические проблемы его совершенствования и инновационные пути их решения.

Ключевые слова: инвестиционная экономика, финансовый механизм, рыночная экономика, иностранные инвестиции, цифровые технологии, инновационная стратегия, инвестиции, инвестор.

Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirish tamoyillari ishlab chiqildi. Mazkur tamoyillar asosida mamlakatimizda qator ijobjiy ishlar amalga oshirildi, jumladan, ichki valyuta bozorini yanada erkinlashtirish va joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha milliy valyutaning konvertatsiya qilinishi ta'minlandi, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish bo'yicha aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish asosida, bu faoliyatlarni tartibga soluvchi qonunlar yaratildi. Bojxona kodeksi, Soliq kodeksi, valyuta ishlarini tartibga solish to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi, shuningdek, xorijiy investitsiyalarini iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va mamlakatning eksport salohiyatini oshirish uchun turli imtiyozlar yaratildi. Respublikada qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha ishlarni yanada ko'paytirish uzoq muddatli strategik vazifa hisoblanadi. Nafaqat ichki kredit manbalarini safarbar etish, balki xorijiy investitsiyalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan qulay muhit yaratish vazifasi biz uchun o'ta muhim strategik ahamiyatga egadir.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy mexanizmlari tahlili hamda uni takomillashtirishning nazariy asoslari, uni tashkil etish va rivojlantirishning istiqbolli yo'naliishlari hamda amaliyotga oid masalalar jahon iqtisodchi olimlaridan Dani Rodrik o'zining "Bir iqtisod, ko'p retseptlar: globallashuv, institutlar va iqtisodiy o'sish" (2022) asarida iqtisodiy rivojlanish hamda globallashuvga turlicha yondashuvlarni, jumladan, siyosatlarning rolini va davlatning xorijiy sarmoyalarni jalb qilish qobiliyatini tahlil qilgan. Shu bilan birga Anne Wil Harzin

o‘zining “Xalqaro menejment” (2021) asarida xalqaro investitsiyalar va transmilliy korporatsiyalarning xorijiy sarmoyaviy faoliyatida qo‘llayotgan strategiyalari haqida o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarini bayon etgan.

Investitsiyalar jalb qilish har bir davlatning, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bu masalani shaxsan davlat rahbarining o‘zi nazorat qilayotgani ham, har bir viloyatda bu borada alohida guruhlar ish olib borayotgani ham bejiz emas. Mamlakatdagi siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilishning kuchli kafolati va keng imtiyozlar tizimi kabi omillar tadbirkorlar uchun eng qulay shart-sharoit yaratmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi xom ashyo, materiallar, energiya resurslari va yuqori malakali ishchi kuchi bahosi qo‘shti mamlakatlarga nisbatan arzon bo‘lishi xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga jalb qilmoqda.

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirishga xalqaro va xorijlik ekspertlar va mutaxassislarning munosabatlari va bergen baholari ham davlatimizning iqtisodiy islohotlarni to‘g‘ri yo‘lda va samarali amalga oshirayotganligidan dalolat beradi. Loyihaviy moliyalashtirishning boshqa moliyalashtirish turlaridan asosiy farqi shundaki, bunda kreditni qaytarishning manbai bo‘lib, loyihani amalga oshirish natijasida olingan daromad (foyda) hisoblanadi. Tijorat yoki investitsiya kreditlarida kreditning qaytarish manbasi bo‘lib, qarzdorning umumiy faoliyatidan olgan daromadi bo‘lishi ham mumkin. Loyihani amalga oshirish orqali ko‘rilgan qo‘sishimcha daromad kreditni qaytarishning asosiy manbai bo‘lib hisoblanadi.

Moliyalashtirishning maqbul usulini tanlash kompaniya faoliyat ko‘rsatadigan ko‘plab holatlarga, shuningdek, kompaniyaning moliyalashtirish xususiyatlarga bog‘liq. Moliyalashtirish usulini tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilishda asosiy omillar quyidagilardir: korxonaning xavf – rentabellik darajasi, korxona hozirda joylashgan biznes jarayoni bosqichi, korxona biznesining ko‘lami, uning boshqaruv tuzilishi va moliyaviy malaka darajasi.

Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, million AQSh dollari hisobida

| Ko‘rsatkichlar | | | | | 2023 yilda 2020 yilga nisbatan o‘sishi |
|---|-----------------|-----------------|----------|----------|---|
| | (+,-) | % | | | |
| Asosiy kapitalga investitsiyalar | 210195,4 | 244963,3 | 266654,4 | 289876,8 | 79681,4 |
| | | | | | 137,9 |

| | | | | | | |
|---|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|----------------|--------------|
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | |
| Markazlashgan investitsiyalar: | 49876,2 | 54675,1 | 57123,2 | 61987,1 | 12110.9 | 124,3 |
| byudjet mablag‘lari | 14897,1 | 18765,1 | 19321,1 | 19843,1 | 4946,0 | 133,2 |
| Davlat maqsadli jamg‘armalari | x | x | x | x | x | x |
| Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi | x | x | x | x | x | x |
| Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg‘armasi | 26,1 | 54,2 | 61,1 | 67,9 | 41,8 | 260,2 |
| Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | 1234,1 | 1967,1 | 2156,1 | 2314,8 | 1080,7 | 187,6 |
| Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | 6734,1 | 8287,1 | 8402,2 | 8675,9 | 1941,8 | 128,8 |
| O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kreditlar | 25437,1 | 32456,1 | 36761,3 | 39876,9 | 14331,9 | 156.8 |
| Markazlashmagan investitsiyalar: | 160319,2 | 190288,2 | 209531,2 | 227889,7 | 67570,5 | 142,1 |
| korxona mablag‘i | 43231,0 | 45342,3 | 46767,6 | 47878,6 | 46476,0 | 110,8 |
| aholi mablag‘i | 14567,2 | 18092,1 | 19786,2 | 21123,8 | 6556,6 | 145,0 |
| to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar | 52432,1 | 59875,3 | 64985,1 | 69217,2 | 16785,1 | 132,0 |

| | | | | | | |
|--|---------|---------|---------|---------|---------|-------|
| tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari | 22134,0 | 27890,0 | 31879,0 | 34234,0 | 12100,0 | 154,7 |
|--|---------|---------|---------|---------|---------|-------|

O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, 2020 yilda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan jami investitsiyalar hajmi 210195,4 million AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib 289876,8 million AQSh dollarini tashkil etgan, bu esa ularning hajmi 2023 yilda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning hajmi 1,37 barobarga oshganligidan dalolat beradi. O‘zbekiston iqtisodiyot tarmoqlariga jalgan etilgan investitsiyalar tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi 2020 yilda 74566,1 million AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib 103451,2 million AQSh dollariga yetgan, bu esa ularning hajmi 2023 yilda 2020 yildagiga nisbatan 1,39 barobarga oshgan. Investitsiya faoliyatida loyihaviy moliyalashtirish – investitsiya loyihalarini kreditlashning bir turi bo‘lib, kreditor loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq risklarni qisman yoki to‘liq o‘z zimmasiga oladi.


Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalarni, xususan, turli sohalardagi investitsiya loyihalarini amaliyotga samarali tatbiq etish bilan ta’minlanadi. Amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining hajmiga qarab iqtisodiyotda yuz berayotgan o‘zgarish va siljishlar haqida xulosa chiqarish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 34-moddasiga muvofiq:

Investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘llaniladigan imtiyoz hamda preferensiyalar quydagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- Davlat mulki bo‘lgan ob’ektlarni yoki ularga bo‘lgan mulkiy huquqlarni imtiyozli yoki nolga teng xarid qiymati bo‘yicha investorga berish;
- Soliqlar va to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar berish;
- Investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun investor tomonidan olinadigan kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini subsidiyalash.
- Imtiyozlar va preferensiyalar quydagilarga qarab beriladi;
- Investitsiyalar hajmiga;
- Investitsiya loyihasi amalga oshiriladigan joyning shart-sharoitlariga;
- Kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy samaraga va yangi ish o‘rinlarini yaratishga;
- Investitsiya loyihasini amalga oshirish sohalari va tarmoqlariga.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarga javoban to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 9 mlrd. dollarga yoki prognozga nisbatan 117%ga, shu jumladan, asosiy kapitalga 2021-yilga nisbatan 124 foizlik o‘sish bilan 8,2 mlrd. dollar o‘zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag‘larining o‘zlashtirilishi 2,1 mlrd. dollar yoki yillik prognozning 100 foizini tashkil etdi.”¹



2022-yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari tarkibi²

2022- yil yanvar-dekabr oylarida 104457,3 mlrd. so‘m yoki O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan jami investitsiyalarning 42,7 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi. Jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 39879,4 mlrd. so‘nni tashkil etdi va qolgan 64577,9 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi.

O‘zbekistonda investitsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish yo‘llari asosida mamlakatimiz investitsion jozibadorligi uchun keng ko‘lamda ishlar bajarilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investorlarni jaib etish uchun qulay shart sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy

¹ Jamoliddin Turdimov, Ziyoda Rizayeva. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi «Iqtisodiy sharh» journali №2/2022 O‘zbekiston Respublikasi Strategik rivojlanish agentligi bosh direktori o‘rinbosari Aleksey Sim bilan suhbat.

² Manba: <http://www.stat.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy sayti) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti bugun jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi. Mamlakatimiz eksport salohiyati yildan-yilga oshmoqda, tashqi bozorga xom-ashyo emas, yuqori qo‘sishimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar yetkazib berilmoqda.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, xorojiy investitsiya loyihalarini jalgilish vaqt jarayoni bilan bevosita bog‘liq. Bu, o‘z navbatida, vaqtning investitsiya loyihasi natijalariga ta’sirini maqbullashtirishda muhim o‘rin egallaydi. Talab va taklifning o‘zgarishi, qonunchilikdagi nobarqarorlik kabilar natijasida yuzaga keladi, turli noaniqliklarning mavjudligi va ta’siri sabab har qanday investitsiya loyihasining kuchli va ojiz tomonlari bo‘lishini hisobga olgan holda ularni moliyaviy tahlil va diagnostika qilish orqali loyihani amalga oshirish jarayonida duch kelinadigan risklar, inqirozli vaziyatdan chiqib ketish yuzasidan qarorlar qabul qilish lozim bo‘ladi.

